

GENDER TENGLIGIDA AYOLLARNING O'RNI

Umarova Farida Sayidkramovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

Toxirova Maxsuda Shuxrat qizi

*Tibbiy pedagogika, pediatriya, stomatologiya, farmatsiya ishi fakultetining
stomatologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Men bu maqolada inson huquqlari va imkoniyatlari, majburiyatlarining jinsga bog'liq emasligini tahlil qilaman.

Kalit so'zlar: gender tengligi, jamiyat, jinsiy tenglik, ta'limda tenglik, iqtisodiy faollik, siyosiy ishtirok, qonuniy islohatlar, davlat siyosati, xalqaro hamkorlik.

Insonlar o'z onglarida jamiyatni ikkita katta guruhga bo'lib olishgan ya'ni ayollik jinsi va erkaklik jinsiga ajratishgan. O'ngi deyarli zaif bo'lgan insonlarning fikriga ko'ra ular bir-biridan ko'pgina xususiyatlar bilan farqlanadi va ularning huquqlari, majburiyatlari, imkoniyatlari ham turlicha. Masalan, unday insonlar ayollarni erkaklarga nisbatan past pog'onada turishlarini ta'kidlashadi. Yuksak ma'naviyat egalari esa bunday fikrlash doirasi tor bo'lgan insonlar mulohazalarini inkor etishadi.

Bundan qanchadir asrlar oldin bunday fikrlash doirasi tor bo'lgan insonlar ko'plab uchragan. Ular o'zlari yaratib olgan qonunlarga asoslanib ayollarning imkoniyatlari va huquqlari cheklashgan. Misol uchun, qizlarni ta'lim olishiga qarshi bo'lishgan, ayollarni uydan tashqariga chiqishlarini man etishgan, har xil davlat lavozimlarida ayollarni cheklashgan va ularni jamoat joylarida nutq so'zlashga yo'l berishmagan. Natija ularni qoloqlashishiga, ongning rivojlanmasligiga va savotsiz ayollarga aylantirishgan. Vaholanki, buning natijasida davlat ham rivojlanishdan orqada qolgan. Chunki, ayol kishi ta'lim olsa birgina inson emas balki ko'plab insonlar ta'lim oladi ya'ni ayol kishi o'z hayotida olgan bilimlarini farzandariga ham asqotadi. Odamlar orasida bir naql bor "Bilimli yigit - otanaga tirgak bo'lsa, ilimli qiz esa – butun millat tayanchidir". Darhaqiqat, hozirgi kunga kelib insonlar orasidagi har tomonlama rivojlanish tezligi ko'ra ayollar erkaklarni ortda qoldirib ketmoqda. Masalan, qadim-zamonlardan beri erkaklar egallashi odat bo'lib kelgan davlatning yuqori lavozimlariga, prezidentlik lavozimlarini, manarxiya taxtlariga ham ayollar nomzodlari qo'yilmoqda va faoliyat yuritmoqdalar, bu esa davlarni ham ayollar boshqara olishini dalolat beradi. Ammo ba'zi bir ma'naviyati past bo'lgan insonlar yuksaklarga erishayotgan ayollarni juda ham kuchli kamsitmoqdalar. Qanchalik e'tibor bermaylik ba'zi bir insonlar ayollarni yer urmoqdalar. Bunday vaziyatlarni oldini olish

uchun davlatlar ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda.Ulardan biri bu-gender tengligi.Bugungi kunda jamiyatlar taraqqiyoti va barqaror rivojlanish uchun gender tengligi muhim omil hisoblanadi.Gender tengligi faqat ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy va ijtimoiy tenglikni anglatmaydi, balki barcha jinsiy guruhlar uchun teng imkoniyatlar va adolatni ta'minlashni nazarda tutadi.Bu tenglik ta'lim, ishga joylashish, siyosiy faollik, sog'liqni saqlash va oilaviy hayotda namoyon bo'lishi lozim.Ko'plab insonlar ayollarni erkaklarga nisbatan zaif deb hisoblashadi.Lekin hozirgi kunga kelib bizning ayol va qizlarimiz sportning har sohasida voleybol, futbol deymizmi, boks deymizmi, yengil va og'ir atletika deymizmi barcha-barchasida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqdalar.Har birimiz tan olishimiz kerakki,hozirgi kunda ba'zi bir erkaklar ayollarning vazifalarini qila olmaydi lekin ayollar erkaklarning vazifalarini mukammal bajara oladilar.Ammo biz oilaviy muhitni ham hisobga olishimiz kerak.Chunki, oilada biz o'zimizni anglab yetgandan to hozirgi kungacha otalarimizning onalarga nisbatan ustun ekanligini ko'rib kelganmiz.Masalan, har qanday oilaga tegishli qonun va qarorlarini doimo otalarimiz belgilagan va buni onalarimizni ham tasdiqlaydi, bu biz uchun odatiy holday bo'lib qolgan.Islom ta'limotiga nazar tashlasak.Xodislarda ilmu-toliblarning yozishicha, erkaklar ayollardan ustun ammo ayollarning islom dinida obro'si yuksak darajada baholanadi.

Har qanday davlatda bir xil qonunlarga ega gender tengligini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu-ayollar va erkaklar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish.Prezidentimiz qabul qilgan bir qator farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog'liq vazifalarni belgilab, ularning ma'suliyatini oshirdi."Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri.Konstitutsiyamizda belgilangan ayollarning haq-huquqlarini oshirish bo'yicha yuqoridan quyigacha amaliy tizim yaratildi.Mana shu yangi tizim samarali ishlashi uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1)"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun